

MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG‘INING EKSPORT SALOHIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI (TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)

UDK: 17.022.1:008-053.81(575.1)

<https://orcid.org/0009-0002-3543-9438>

Ergashev Jamshid Axmadaliyevich

Toshkent Davlat Agrar Universiteti tayanch doktoranti.

e-mail: jamshidergashev010@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda meva-sabzavotchilik tarmog‘ining eksporti qishloq xo‘jaligini yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyati borasidagi masalalarga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli oshishi yangi texnologiyalarni joriy qilinishi va qishloq xo‘jaligi jadal rivojlanayotganligi guvoxi bo‘lmoqdamiz meva-sabzavotchilik tarmog‘ining eksportini tasniflash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan.*

***Kalit so‘zlar:** meva-sabzavotchilik tarmog‘i, eksport, import, statistika, iqtisod, strategiya, aholi bandligi, ishsizlik, qishloq xo‘jaligining samaradorli, foydali ish unumdorligi yuqori bo‘lgan texnologiyalar, internet olami.*

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ЭКСПОРТНЫМ УПРАВЛЕНИЕМ ПЛОДООВОЩНОЙ СЕТИ

***Резюме:** В данной статье подробно рассматривается роль и значение экспорта плодоовощной продукции в развитии сельского хозяйства. Также о значительном увеличении валютных доходов страны за счет реализации плодоовощной продукции на внешних рынках свидетельствует внедрение новых технологий и бурное развитие сельского хозяйства..*

***Ключевые слова:** плодоовощная промышленность, экспорт, импорт, статистика, экономика, стратегия, занятость населения, безработица, эффективные и полезные сельскохозяйственные технологии с высокой производительностью, мир Интернета.*

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF MANAGING THE EXPORT AUTHORITY OF THE FRUIT AND VEGETABLE NETWORK

Resume: *In this article, the role and importance of the export of fruits and vegetables in the development of agriculture is discussed in detail. Also, we are witnessing a significant increase in foreign currency income of the country due to the sale of fruit and vegetable products in foreign markets, the introduction of new technologies and the rapid development of agriculture.*

Key words: *fruit and vegetable industry, export, import, statistics, economy, strategy, population employment, unemployment, efficient and useful agricultural technologies with high productivity, internet world.*

Kirish (Introduction). Bugungi kunda jahonda yuqori texnologiyalar asrida qishloq xo‘jaligi hamon jahon iqtisodiyotining ajralmas tarmog‘i bo‘lib qolmoqda. Agrosanoat dunyoning meva-sabzavotga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlabgina qolmay, eksport qiluvchi mamlakatlarga ham yuqori daromad keltirmoqda. Qishloq xo‘jaligining yana bir e‘tiborga molik jihati shundaki, u kamdan-kam talab tebranishlaridan aziyat chekadi, ya‘ni u o‘z mamlakatining barqaror ichki iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlay oladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.12.2021 yildagi PQ-52-sonli qarori Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorlari mazkur faoliyatni rivojlantirishdagi belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.¹ Daromadli qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga tayangan holda, hukumatlar o‘z davlatlarini kuchli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun mustahkam baza bilan ta‘minlaydi.² Birlashgan Millatlar Tashkilotining Meva-sabzavotchilik va qishloq xo‘jaligi assotsiatsiyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining 67% qishloq xo‘jaligida band. Yalpi ichki mahsulotning 39,5 foizini, jahon eksportining 43 foizini qishloq xo‘jaligi sektori tashkil qiladi.³ Shu bilan birga, global hududlarning 11 foizi o‘simlikchilikka, 26 foizi esa yaylovga berilgan. 2022-yil uchun agrosanoat tarmog‘i to‘rtta muhim guruh – meva-sabzavotchilik, xomashyo, tola va yoqilg‘i yetkazib beruvchi hisoblanadi. Ma‘lumki, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan sohani bozor

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5774700> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.12.2021 yildagi PQ-52-sonli qarori, 11.12.2019 yildagi PQ-4549-sonli qarori

² <https://lindeal.com/>

³ <https://com-stil.com/blogs/eksport-ovoshhej-fruktov>

munosabatlariga o'tish jarayonida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor yo'nalishlar sifatida katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli rivojlantirishning ustuvorligidan dalolat beradi. Meva-sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 22,2 % i), bu Turkiyaga eksport hajmidan 10,4 % ga ko'p. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport geografiyasi (2022- yil yanvar-fevral)¹. Vazirlar Mahkamasining "Meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish kiritish haqida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi. "Xalqaro savdo - xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi bo'lib, ancha murakkab va ko'p qirrali holat hisoblangani uchun uning turli ta'riflari mavjud. Umum e'tirof etilgan ta'rifga ko'ra xalqaro savdo dunyoning barcha mamlakatlari tashqi savdolarining yig'indisini ifodalaydi. Xalqaro savdo – bu muayyan mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi bo'lib, u tovarlar, ishlar va xizmatlarni mamlakatdan olib chiqish (eksport) va mamlakatga olib kirishdan (import) tashkil topadi.²

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mamlakatimizda agrosanoat majmuasi ulkan eksport salohiyatiga ega bo'lib, bu serquyosh zaminda yetishtirilayotgan mevalar, sabzavot va poliz mahsulotlari, meva-sabzavotlarni qayta ishlash natijasida olingan meva-sabzavotchilik mahsulotlari dunyo bozorlarida mustahkam o'rin egallashi mumkin. Mamlakatimizning tabiiy-iqlim sharoiti jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan meva va sabzavotlarni yetishtirishga imkon yaratadi. Bugungi kunda, biz dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilmoqdamiz. E.Y.Sidorova xalqaro savdoni mamlakatlarning chegaralar orqali tovarlar va xizmatlar bilan ayriboshlash jarayoni deb qaraydi. Uning fikricha, turli mahsulotlarni ishlab chiqarishda mamlakatlararo raqobat ustunliklaridagi (yoki nisbiy ustunliklardagi) farqlar xalqaro mehnat taqsimotiga asos yaratadi va mamlakatlar orasidagi eksport hamda import oqimini belgilab beradi.³ Eksportning iqtisodiy samaradorligi shu bilan aniqlanadiki, mamlakat ishlab chiqarishning milliy xarajatlari jahon xarajatlaridan past bo'lgan mahsulotlarni chetga chiqaradi. Bunda eksportdan olinadigan yutuq hajmi mazkur tovar bo'yicha milliy va jahon narxlarining nisbatiga, mazkur tovarning xalqaro aylanmasida ishtirok etuvchi mamlakatlarning mehnat

¹ <https://samstat.uz/uz/>

² И.В.Кокушкина, М.С.Воронин. Международная торговля и мировые рынки. Учебное пособие. –СПб.: Техническая книга, 2017. -11 с

³ Е.Ю.Сидорова. Международная торговля. Учебное пособие. –М.: Экзамен, 2020. – 8 с.

unumdorligiga bog‘liq”.¹ “Eksport” so‘zi lotin tilidagi “exporto” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tarjimada “chiqaraman” degan ma‘noni anglatadi. Odatda bu so‘z zamirida bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga tovar-moddiy qimmatliklar, kapital, bilim, ishchi kuchi va boshqalarni olib chiqish tushuniladi. Shu bois nazariy ayrim A.Klinin, V.Sibulskiy, A.Djahangirov, S.Baranovskiy, A.Yasheva, E.Mukarramova, D.Lipatov, L.Usenko, L.Zakolodnaya, B.Pleshkov, D.Enshteyn, T.Uskova, A.Nastin singari olimlarning tadqiqotlarida ko‘rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot ishimiz jarayonida Mazkur tadqiqotda meva-sabzavot eksport qiladigan korxonalari rivojlanish qonuniyatlari tadqiqot etilgan bo‘lsada meva-sabzavotchilik tarmog‘ining eksport salohiyatini samaradorligini oshirishni o‘ziga xos yo‘nalishlariga e‘tibori o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot natjalaridan meva-sabzavot tarmog‘ining eksporti xususida zaruriy fikrlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek maqolada kuzatish, Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, omilli tahlil, ekspert tahlil, so‘rov, tanlama kuzatuv, koralatsion –regression tahlil singari ususullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Avvalombor mamlakatlar o‘zlaridagi ichki iste‘moldan ortiqcha raqobatbardosh mahsulotlarni xalqaro bozorlarda sotish orqali valyuta ishlab topib, o‘zlarida ishlab chiqarilmaydigan tovarlarni xarid qilishga harakat qiladilar. Turli mamlakatlar turli pul birliklarini ishlatishlarini e‘tiborga olsak, xalqaro bozorlarda amalda bo‘lgan valyutalarni ishlab topish uchun mahsulotlarni eksport qilishga to‘g‘ri keladi.

Agrosanoat majmuasi meva-sabzavotchilik mahsulotlarini jahon bozorlariga eksport qilish zaruriyati va shart-sharoitlarini tahlil qilishdan oldin “Eksport” tushunchasining iqtisodiy mohiyati va xususiyatlarini o‘rganish lozim bo‘ladi.

“Eksport” tushunchasiga ta‘rif berishda turli manbalarda bir-biriga yaqin va o‘xshash yondoshuvlar uchraydi. Xususan, Rossiyalik iqtisodchi olimlar Ye.V.Vavilova L.P.Borodulinalarning ta‘rif berishicha: “Eksport deganda tovarlar va xizmatlarni tashqi bozorlarda sotish uchun mamlakatning milliy chegarasi orqali olib chiqish tushuniladi. Eksport predmetlari bo‘lib mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar (xizmatlar) hamda tashqaridan mamlakatga olib kirilib, qayta ishlab tashqariga sotishga mo‘ljallangan tovarlar hisoblanadi. Ekportning alohida shakli sifatida reeksport, ya‘ni mamlakatga oldin olib kirilgan tovarlarni qayta ishlamasdan tashqariga chiqarib sotish yuzaga chiqadi”.²

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh.Shodmonov va U.V.G‘ofurovlarning

¹ E.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля. Учебное пособие.М.: Гардарики, 2016. 39 с.

² E.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля. Учебное пособие. М.: Гардарики, 2016. – 39 с.

fikricha, “Eksport – bu tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo‘lib, bunda mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi”.¹ Boshqa bir iqtisodchi olimlarimiz A.O‘lmasov va A.Vahobovlarning ta’rificha, “Eksport – bu tovarlarni mamlakat tashqarisiga chiqarib sotish”².

Jahon meva-sabzavotchilik bozorlariga kirib borish va unda mustahkam o‘rin egallash ko‘p jihatdan eksport strategiyasini to‘g‘ri belgilab olishga bog‘liq. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, eksport strategiyasi deganda eksportchi firmaning o‘z mahsulotlarini jahon bozorlariga olib kirish va sotish borasidagi maqsadlari, ularni amalga oshirish vositalari va muddatlarini o‘z ichiga olgan kompleks chora-tadbirlar tizimi tushuniladi Eksportga chiqariladigan mahsulot turlari va eksport salohiyatini aniqlash quyidagi ko‘rsatkichlar asosida amalga oshiriladi: jahon bozorlarida talab yuqori mahsulotlar turlari va ularning xususiyatlari; qaysi turdagi mahsulotlarni qancha miqdorda eksportga chiqarish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligiga baho berish; eksport mahsulotining ichki va jahon bozorlaridagi narxlari, ularni ishlab chiqarish va eksportga chiqarish xarajatlari, boj yig‘imlari va soliqlar asosida olinadigan foydani tahlil qilish.. Mutaxassislar fikriga qaraganda, eksport strategiyasini ishlab chiqishda firma:

- o‘zining eksport salohiyatiga baho berishi;
- eksport bo‘yicha ekspertlar ko‘magiga tayanishi;
- maqsadli bozor yoki bozorlarni tanlashi;
- maqsadlarni aniqlashtirib o‘z mahsulotini tanlangan bozorlarga olib kirilishini ta’minlashi zarur.

Eksport strategiyasini ishlab chiqishda, odatda quyidagi to‘rt omil hisobga olinadi:

- 1) Eksportdan ko‘zda tutilgan maqsad – qisqa va istiqbolli;
- 2) Firmaning aniq taktikasi;
- 3) Firmaning belgilangan maqsadlariga erishishiga yordam beruvchi chora-tadbirlar va ularni amalga oshirish muddatlarining reja-grafigi;
- 4) Eksport bilan bog‘liq faoliyatning turli shakllari bo‘yicha resurslarni taqsimlash ”.³

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ma’lumki, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, xususan, meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish imkonini beradi. O‘zbekiston

¹ Sh.Sh.Shodmonov, U.V.Ubaydullaev. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: Iqtisod- Moliya, -2010. - 610 b.

² A.O‘lmasov, A.Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri). –T.: Iqtisod-Moliya, 2014. – 392 b.

³ Д.Дэниэлс, Л.Х. Радеба. Международный бизнес: внешняя среда и деловые операции. Пер. с англ., 6-изд. – М.: Дело ЛТД, 2014. -453 с.

Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan sohani bozor munosabatlariga o'tish jarayonida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor yo'nalishlar sifatida katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotganligi ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, tarmoqda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar quyidagi iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni hal qilish imkonini yaratmoqda:

iqtisodiy masalada – meva-sabzavotchilik jami ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 32,2 foizini (mamlakat yalpi ichki mahsulotining 8,7 foizi) tashkil etgani holda qishloq joylarida aholining asosiy daromadlaridan biri hisoblanadi. Sanoatning qator tarmoqlarini rivojlanishiga o'zining bevosita ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu tarmoq mamlakat qishloq xo'jaligi eksportida asosiy o'rinlarni egallaydi;

ijtimoiy masalada – meva-sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish samaradorligi, nafaqat qishloq aholisining turmush darajasiga, balki mamlakat barcha aholisining ijtimoiy farovonligini ham oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yakuniy natijada ushbu islohotlardan pirovard maqsad mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanib, yangi O'zbekiston rivojlanishining barcha jarayonlarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ijobiy natijalarida yaqqol namoyon bo'ladi hamda aholi turmush darajasining oshib borishini o'zida aks ettiradi.

Shu bilan bir qatorda "... sohada ayniqsa, meva-sabzavotchilikni rivojlantirishda samarali bozor mexanizmlari tizimli yo'lga qo'yilmaganligi, ilmiy yondashuvning yetarli emasligi tarmoqning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmasligiga olib kelmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, 1 gektar maydonda yetishtirilgan paxta xom ashyosiga nisbatan uzumdan 7 baravar, gilosdan 6 baravar, yong'oqdan 5 baravar ko'p daromad olish imkoniyati mavjud". Shuningdek, ushbu mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash hamda eksport qilishda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilyapti, deb bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavotning atigi 15 foizi qayta ishlanib, 8 foizi eksport qilinmoqda, xolos. Ayniqsa, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida bu ko'rsatkichlar hamon pastligicha qolmoqda. Joriy yilda 860 ming tonna yoki 620 million dollarlik meva-sabzavot eksport qilingani bizning imkoniyat va salohiyatimizga mosmi? Yo'q, albatta! Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida bog'lar va tokzorlarga ishlov beradigan va yig'ishtirib oladigan texnikalar mavjud emas. Fermer, dehqon xo'jaliklariga yoqilg'i-moylash mahsulotlari, mineral o'g'itlar, urug'lik yetkazib berish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash ishlari talab darajasida tashkil etilmagan"

BIBLIOGRAFIYA

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.12.2021 yildagi PQ-52-sonli qarori, 11.12.2019 yildagi PQ-4549-sonli qarori.
2. И.В.Кокушкина, М.С.Воронин. Международная торговля и мировые рынки. Учебное пособие. –СПб.: Техническая книга, 2017. -11 с.
3. И.В.Кокушкина, М.С.Воронин. Международная торговля и мировые рынки. Учебное пособие. –СПб.: Техническая книга, 2017. -11 с
4. Е.Ю.Сидорова. Международная торговля. Учебное пособие. –М.: Экзамен, 2020. – 8 с.
5. Е.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля. Учебное пособие.М.:Гардарики, 2016. 39 с.
6. Е.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля. Учебное пособие. М.: Гардарики, 2016. – 39 с.
7. Д.Дэниэлс, Л.Х. Радеба. Международный бизнес: внешняя среда и деловые операции. Пер. с англ., 6-изд. – М.: Дело ЛТД, 2014. -453 с.
8. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.Ubaydullaev. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –Т.: Iqtisod- Moliya, -2010. - 610 b.
9. А.О‘lmasov, А.Вahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri). –Т.: Iqtisod-Moliya, 2014. – 392 b.
10. <https://lex.uz/ru/docs/-5774700>
11. <https://lindeal.com/>
12. <https://com-stil.com/blogs/eksport-ovoshhej-fruktoy>
13. <https://samstat.uz/uz/>